

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2020 yil 1 aprel holatiga 3766,0 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 70,4 ming kishiga yoki 1,9 foiziغا o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2124,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,4%), qishloq aholisi soni 1641,3 ming kishini (43,6 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering:

#### 2020 yil yanvar- mart


Aholi soni **70,4 ming** kishiga ko`paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **18,7 ming** nafarni tashkil etdi.


**4,1 ming ta** vafot etganlar qayd etildi.

Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlarida **4,9 ming** ta nikoh va **0,8 ming** ta ajralishlar ro`yxatga olindi.

## Farg'ona viloyati aholisining umumiyo`sishi (2020 yil yanvar-mart oylarida) ming kishi




## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020 yil 1 aprel holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2020 yil 1 aprel holatiga eng ko`p aholi soni Farg'ona shahrida 290,0 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 257,9 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 93,5 ming kishi (2,5 %) va So`x tumanida 77,9 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019 yilning mos davriga nisbatan Bog'dod tumanida 2,2 % ni, Uchko`prik va Dang'ara tumanida 2,1 % ni, Qo`qon va Marg'ilon shahlarida 1,7 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Furqat tumanida 1,6 % ni tashkil etdi.



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2020 yil 1 aprel holatiga, ming kishi)





### Ma`lumot uchun:

Tirik tug`ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo`lsa ham bola tirik tug`ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo`yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo`lishi lozim.

**Tug`ilish.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida 18,7 ming ta bola tug`ilganligi qayd etilgan bo`lib (bu yerda va bundan keyin tug`ilganlarga faqat tirik tug`ilganlar inobatga olingan), 2019 yilning mos davriga 16,9 ming ta bola tug`ilgan, 2020 yilning yanvar-mart oylarida 1000 aholiga nisbatan tug`ilish koeffitsiyenti 20,0 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 1,4 promillega ortgan).

Tug`ilish koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan Uchko`pik tumani (19,5 promilledan 22,8 promillega) va Dang`ara tumani (19,8 promilledan 22,6 promillega) sezilarli o`sigan bo`lib, deyarli barcha shahar va tumanlarda o`sish kuzatildi.

### **Shahar va tumanlar bo`yicha tug`ilganlar soni (yanvar-mart, kishi)**

	<b>2019 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>O`sish sur`ati</b>
Farg`ona viloyati	<b>16897</b>	<b>18723</b>	<b>110,8</b>
Farg`ona sh.	1059	1295	122,3
Qo`qon sh.	1144	1295	113,2
Quvasoy sh.	393	426	108,4
Marg`ilon sh.	1069	1188	111,4
Oltiariq	953	1003	105,2
Qo`shtepa	911	974	106,9
Bag`dod	981	1105	112,6
Buvayda	1028	1148	111,7
Beshariq	934	1054	112,8
Quva	1111	1248	112,3
Uchko`prik	1075	1290	120,0
Rishton	962	929	96,6
So`x	275	264	96,0
Toshloq	982	1126	114,7
O`zbekiston	1107	1205	108,9
Farg`ona	1018	1086	106,7
Dang`ara	828	971	117,3
Furqat	560	597	106,6
Yozyovon	507	519	102,4



**Vafot etganlar.** 2020 yilning yanvar-mart, oylarida 4,1 ming ta o`lim qayd etilgan bo`lib, barcha shahar, tumanlarda 2019 yilning mos davriga nisbatan ko`payish yuz bergan. 1000 aholiga nisbatan o`lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga 4,8 promilleni tashkil etgan .

O`lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko`payishi Farg`ona shahri (5,4 promilledan 5,8 promillega), Beshariq (4,4 promilledan 4,8 promillega), va Toshloq tumanlarida (4,2 promilledan 4,4 promillega) o`sgran.

## Vafot etganlar



**Erkaklar:** **Ayollar:**  
2,2 ming 1,9 ming  
kishi kishi


## Shahar va tumanlar bo`yicha o`lganlar soni (yanvar- mart, kishi)

	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati
Farg`ona viloyati	4370	4111	94,1
Farg`ona sh.	376	416	110,6
Qo`qon sh.	342	314	91,8
Quvasoy sh.	117	95	81,2
Marg`ilon sh.	338	288	85,2
Oltiariq	241	226	93,8
Qo`shtepa	229	200	87,3
Bag`dod	209	219	108,4
Buvayda	210	216	102,9
Beshariq	241	272	112,9
Quva	308	259	84,1
Uchko`prik	292	201	68,8
Rishton	189	193	102,1
So`x	63	52	82,5
Toshloq	205	218	106,3
O`zbekiston	245	246	100,4
Farg`ona	252	209	82,9
Dang`ara	227	209	92,1
Furqat	183	163	89,1
Yozyovon	103	115	111,7

2020 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 65,7 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,5 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 9,4 foizi o'simtalardan, 4,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,0 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 10,1 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro`yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 175 nafarni tashkil etib, ularning 25,7 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 15,4 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 22,9 foizi tug`ma anomaliyalardan, 3,4 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 26,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### **Asosiy o`lim sabablari bo`yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**



**Tabiiy o'sish.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 14,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 2,1 ming kishiga (2019 yilning yanvar-mart oylarida 12,5 ming kishi bo`lgan) o'sgan.




**Nikoh.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlari tomonidan 4861 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni bo`yicha 2019 yilning mos davriga

nisbatan kamayish sur`ati 93,2 foizga kamaygan bo`lib, Uchko`prik (kamayish sur`ati 76,5 foiz) va Yozyovon (kamayish sur`ati 77,2 foiz) tumanlarida kamayish holatlari yuz berdi.

### **Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti**

(2020 yil yanvar- mart oylarida, 1000 aholiga nisbatan,promille)






ajrashganlar koeffitsiyenti Qo`qon shahri (1,4 promille), Qo`shtepa tumani (1,1 promille) Marg'ilon shahrida (0,9 promille) kuzatildi.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlari tomonidan 797 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Hududlar bo`yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida eng yuqori nikohdan

### **Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2020 yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)**



**Shahar va tumanlar bo`yicha nikohlar va ajrimlar soni**  
**(2020 yil yanvar-mart kishi)**

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2019 y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>	<i>2019 y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>
<b>Farg'ona viloyati</b>	5214	4861	93,2	757	797	105,3
Farg'ona sh.	346	329	95,1	101	139	137,6
Qo`qon sh.	363	326	89,8	97	91	93,8
Quvasoy sh.	90	81	90	30	16	53,3
Marg'ilon sh.	172	154	89,5	52	51	98,1
Oltiariq	261	290	111,1	31	45	145,2
Qo`shtepa	130	121	93,1	23	53	230,4
Bag'dod	322	294	91,3	44	48	109,1
Buvayda	274	282	102,9	33	31	93,9
Beshariq	498	490	98,4	38	37	97,4
Quva	403	342	84,9	39	31	79,5
Uchko`prik	332	254	76,5	32	30	93,8
Rishton	334	304	91	43	40	93
So`x	183	206	112,6	9	9	100
Toshloq	180	181	100,6	21	32	152,4
O`zbekiston	383	342	89,3	38	47	123,7
Farg'ona t.	307	305	99,3	52	42	80,8
Dang'ara	276	239	86,6	35	18	51,4
Furqat	237	226	95,4	25	18	72
Yozyovon	123	95	77,2	14	19	135,7

Dastlabki ma`lumotlarga qaraganda viloyatda doimiy aholi sonining milliy tarkibini bo`yicha ulushi eng yuqori ko`rsatkichi foiz xisobida O`zbek millati 89,5 foiz, Tojik millati 5,9 foiz, Qirg'iz millati 2,0 foiz, Rus millati 1,2 foiz va boshqa millatga mansublar 1,4 foizni tashkil etadi.



### Millatlar



**Migratsiya.** 2020 yil yanvar- mart oylarida viloyat bo`yicha ko`chib kelganlar soni 2752 kishini tashkil etdi.



2020 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo`yicha ko`chib ketganlar soni esa 3398 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosи minus 646 kishi bo`lib, 2019 yilning o`tgan shu davrida minus 269 kishi bo`lgan.

### Aholi migratsiyasi (kishida)

	2019 yil yanvar-mart	2020 yil yanvar-mart	
<b>Ko`chib kelganlar</b>	4188	2752	O`tgan yilning shu davriga nisbatan kishi, ko`chib kelganlar soni 2752 ko`chib ketganlar soni esa 3398 kishiga kamaygan.
<b>Ko`chib ketganlar</b>	4457	3398	2020 yilning 3 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi O`zbekiston tumani (minus 121 kishi) va eng yuqori o`sish darajasi Farg`ona 276 kishi) shaharlarda qayd etildi.
<b>Migratsiya saldosи</b>	-269	-646	